

## USEFUL FEATURES OF THE HAWTHORN PLANT

Rozikova Nigora

Namangan State University

Chemistry 2nd year student

Nomonov Shahzod

Namangan State University

Chemistry 4nd year student

**Annotation:** This article talks about Hawthorn, which is considered a tree or shrub belonging to the family of rhododendrons. During the article, you can learn about Hawthorn, its features and in which countries it is mainly distributed. In addition, you will learn about its components that are important for human health, and that it contains substances necessary for human life.

**Key words:** Roses (Rosaceae), rheumatism, rheumocarditis, atherosclerosis, neurosis, metabolism.

### DO‘LANA O‘SIMLIGINING FOYDALI HUSUSIYATLARI

Roziqova Nigora

Namangan Davlat Universiteti

Kimyo yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Nomonov Shaxzod

Namangan Davlat Universiteti

Kimyo yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ra‘nodoshlar oilasiga mansub daraxt yoki buta hissoblanadigan Do‘lana haqida so‘z yuritilgan. Maqola davomida Do‘lana haqida uning xususiyatlari va asosan qaysi davlatlarda tarqalganligi bilib oliashingiz mumkin. Shu bilan bir qatorda uning inson salomatligi uchun muhim bo‘lgan komponentlari, inson hayot uchun zarur moddalarni o‘zida jamlaganligi haqida ma‘lumotlarni ham bilib olasiz.

**Kalit soʻzlar:** Raʼnodoshlar (Rosaceae), revmatizm, revmokarditda, aterosklerozda, nevroz, metabolizm.

Xalqimizda “jondan kechmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang doʻlana qayda” degan maqol bor. Bu maqolning zamirida koʻpgina hikmatli oʻgʻitlar mujassam. Shuningdek, doʻlananing bebaho neʼmat ekanligidan ham dalolat beradi.

Darhaqiqat, doʻlana mevalar ichida nafaqat xushxoʻrligi, balki shifobaxshligi bilan ham ajralib turadi. Alloma bobokalonimiz, tabobat ilmining sultoni Abu Ali Ibn Sino oʻzining “Tib qonunlari” kitobining sodda dorilar xususiyatiga bagʻishlangan bobida doʻlanaga baho berib, “uning mevalari sariq va qizil rangli boʻlib, burushturuvchidir, burushtirish taʼsiri jiydanikidan kuchlidir, safroni soʻndiradi va ichni toʻxtatadi” deb yozadi.

Hozirgi zamon tabobatida ham doʻlananing mevasi va guli yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolashda hamda asabni tinchlantiruvchi va qon bosimini pasaytiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Doʻlana Raʼnodoshlar (Rosaceae) oilasiga mansub, boʻyi 5m. yetadigan daraxt boʻlib, respublikamizning togʻli tumanlarida tarqalgan. Oʻzbekistonda doʻlananing bir nechta turi uchraydi, ayniqsa sariq rangli doʻlana (*Crateagus pontica* L.) keng tarqalgan boʻlib, mevasi isteʼmol qilinadi. Tibbiyotda esa doʻlanani 6 turining mevasi va gullari ishlatilishga ruxsat etilgan. Asosan keng tarqalgan qizil doʻlana-yaʼni, Turkiston doʻlanasi (*Crateagus turkestanica*) ishlatiladi. Bu daraxtning bargi, gullari va mevalari shifobaxshdir. Uning bir hovuchi isteʼmol qilinsa, kun boʻyi kishini nafaqat tashnalik, balki ochlikdan ham asraydi. U insonga yaxshi kayfiyat, bardamlik va quvvat baxsh etadi. Shu boisdan boʻlsa kerak, doʻlanani lotin tilida “gratas” (kuchli) deb ataydilar[1].

Meva tarkibida 20 foiz qand, 8 foiz yogʻ, flavonoidlar, xolin, atsetilxolin, oshlovchi moddalar, karotin, S vitamini, organik kislotalar kabi moddalar mavjud. Oʻzbekiston sharoitida oʻsadigan doʻlananing baʼzi turlarida V1, V2, RR, S, Ye vitaminlari borligi aniqlangan. Koʻpgina xalqlar xalq tabobatida doʻlana ich ketish, toliqish, aqliy horgʻinlik, uyqusizlik va asabiylashganda qoʻllaniladi. Shuningdek, bu meva yurak ogʻriganda, klimaks davrida, revmatizm asoratidan paydo boʻlgan

revmokarditda, aterosklerozda, qon bosimi oshganda, bosh aylanishi, yoʻtalda ham isteʼmol qilinadi. Hozirda farmatsevtika sanoatida doʻlana gullaridan tayyorlangan tindirma va turli boshqa giyohlar bilan birga tayyorlangan dori vositalari ateroskleroz, nevroz, asab tizimi va yurak- qon tomir kasalliklarida keng foydalanilmoqda[2].



**Doʻlana haqida 7 ta oltin maslahat.** Zamon tabobatida ham doʻlananing mevasi, bargi, shoxlari va gulidan foydalanib kelinmoqda. U yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolashda hamda asabni tinchlantiruvchi, qon bosimini pasaytiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Boʻgʻimlar uchun: Doʻlana ekstrakti artrit va podagra kasalliklarida foydalidir. U boʻgʻimlarni jarohlardan ximoya qilishga va ogʻriqsiz harakatlanishiga yordam beruvchi oqsil va kollagenni organizmda ushlab turadi. Doʻlanani isteʼmol qilish ushbu kasalliklarni davolash va oldini olishda asqatadi.

Yurak-qon tomirlari uchun: Uning ekstrakti tufayli yurak yetishmovchiligini, koʻkrakdagi ogʻriqlarni, aritmiyani yengish, qon bosimini tushirish, aterosklerozdan xalos boʻlish va xolesterin miqdorini kamaytirish mumkin. Doʻlana qon tomirlarini kengaytirib, qon aylanishini ham yaxshilaydi.

Asab tizimi uchun: Do‘lana tarkibidagi fermentlar organizmdagi gormonlarga ham ta’sir qiladi. Bu esa depressiya, surunkali charchoq va asabiylashish asoratlarini yengishga yordam beradi.

Do‘lana ekstraktini qabul qilish xavotirni yo‘qotadi. Shu sababli, u ko‘p yillar davomida tabiiy tinchlantiruvchi vosita sifatida qo‘llanilgan. U uyqusizlik va asabiylashishdan xalos etib, organizm faoliyatini yaxshilaydi.

Oshqozon ichak yo‘llari uchun: Do‘lana tarkibidagi organik birikmalar va kletchatkalar ichak mikroflorasi bilan birga aloqaga kirishadi va uning faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, do‘lana ovqat xazm bo‘lishiga va yegulikni oshqozonda maydalanishiga yordam beradi. Metabolizmni oshiradi, ichni yumshatadi, spazm, qorin dam bo‘lishini yo‘qotadi. Ichak infeksiyalari bilan ham kurashadi. Do‘lana yordamida soliter va tasmaimon parazitdan halos bo‘lish mumkin.

Buyrak va siydik yo‘llari uchun: Do‘lana diuretik vositalar qatoriga kiradiva organizmdagi ortiqcha suyuqlikdan xalos bo‘lishga ko‘maklashadi. U buyrak faoliyatini faollashtiradi va peshobdagi tuzlarni ajralib chiqishini kuchaytiradi. Buyrak kasalliklarini davolashda va siydik qopining faoliyatini yaxshilashda as qotadi.

Teri qatlami uchun: uning tarkibida antioksidantlar mavjudligi uchun yara, ekzema, psoriaz, kuygan jarohatlarni davolashda qo‘llaniladi. Yallig‘lanish va qichishishni yo‘qotib, jarohatlarni tez bitishiga yordam beradi. Keksalarda uchrovchi yoshga oid dog‘larni va ajinlarni paydo bo‘lishini oldini oladi.

Immunitet uchun: do‘lana organizmdagi toksinlarni chiqarib yuboradi. Tarkibidagi S vitamini leykotsitlar ni faollashtiradi va immun tizimini yaxshilaydi.

Har bir narsaning foydali tarafi bilan nojo‘ya hususiyati bo‘lgani kabi, do‘lana o‘simligining nojo‘ya ta’siri ham bor. Ular quyidagi hollarda istemol qilib bo‘lmaydi.

- Yurak kasalliklarini davolashga mo‘ljallangan dorilar bilan birga qo‘llash.
- Jarrohlik amaliyotidan oldin va keyin.
- Do‘lanani och qoringa iste’mol qilish mumkin emas. Chunki, u ichakni spazm qilib qayt qildiradi.

- Bu mevani yegandan keyin ustidan sovuq suv ichish ham zararli, aks holda u me'da-ichak sanchig'iga sabab bo'lishi mumkin.

- Uni ortiqcha iste'mol qilish buyrakka zarar bo'lib, me'da-ichakni zaiflashtirib, qulanj (kolit) xastaligi, ko'ngil aynishi, qayt qilishni paydo qiladi[3].



**Xulosa.** Do'lanani och qoringa iste'mol qilmaslik kerak. Chunki, u ichakni qisib (spazm) qayt qildiradi. Bu mevani iste'mol qilgandan ke-yin ustidan sovuq suv ichish mumkin emas, aks holda u me'da-ichak sanchig'iga sabab bo'lishini unutmang.

Shuningdek, uni ortiqcha iste'mol qilish buyrakka zararli bo'lib, me'da-ichakni zaiflashtirib, qulanj (kolit) xas-taligi, ko'ngil aynishi, qayt qilishni paydo qiladi.

Mevaning qaynatma, damlama, qiyom va undan tayyorlangan preparatlar bilan davolanish faqat shifokor maslahati bilan va uning nazorati ostida qo'llanishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://zamin.uz/uz/tibbiyot/45373-dulananing-7-foydasi.html>
3. <https://shifo.uz/article/do-lana-haqida>